

UMMAVIYLAR DAVRIDA QOZILIK TIZIMINING RIVOJI

Yakubov Husniddin Muxitdinovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Chirchiq, O'zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom tarixida qozilik tizimining shakllanishi va taraqqiyoti, xususan, Umaviylar davridagi o'zgarishlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif qozilik institutining dastlabki bosqichlari – Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) davridan boshlab Xulafoi roshidun, so'ngra Umaviylar davrigacha bo'lgan davrlarni bosqichma-bosqich ko'rib chiqqan. Ayniqsa, Umaviylar davrida qozilikning mustaqil davlat organi sifatida shakllanishi, sud tizimida ixtisoslashuvning paydo bo'lishi, hujjatlashtirish, tarjima, ijti hod va mazolim sudlarining faoliyati keng yoritilgan. Maqolada ko'plab tarixiy manbalarga tayangan holda, qozilarning vakolatlari, sud ishlarini yuritish tartibi va adolat mezonlari haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan. Xususan, bu davrda qozilar tomonidan chiqarilgan hukmlarning yozib borilishi, sud jarayonlarida tarjimon, shurta va boshqa yordamchi shaxslarning ishtiroki muhim tarixiy hodisa sifatida ta'kidlanadi. Yakunda maqola bugungi kunda adolatli sudlov tizimini shakllantirishda tarixiy tajribaning ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Islom huquqi, qozilik tizimi, Umaviylar davri, adolatli sudlov, shariat, ijti hod, mazolim sudi, tarixiy manbalar, vakolatlar, musulmon huquqi.

DEVELOPMENT OF THE JUDICIAL SYSTEM DURING THE UMAWID PERIOD

Yakubov Husniddin Mukhitdinovich

Teacher of Chirchik State Pedagogical University

Chirchik, Uzbekistan.

Abstract: This article scientifically analyzes the formation and development of the judicial system in Islamic history, in particular, changes during the Umayyad period. The author gradually examined the initial stages of the judicial institution - from the time of the Prophet Muhammad (pbuh) to the Rightly Guided Caliphs, and then the Umayyad period. In particular, the formation of the judicial system as an independent state body during the Umayyad period, the emergence of specialization in the judicial system, documentation, translation, ijtiḥad and the activities of the Mazalim courts are widely covered. The article, based on numerous historical sources, provides information on the powers of judges, the procedure for conducting court cases, and the criteria of justice. In particular, the recording of verdicts issued by judges during this period, the participation of translators, shurtas and other auxiliary persons in court proceedings is emphasized as an important historical event. Finally, the article shows the importance of historical experience in the formation of a fair judicial system today.

Keywords: Islamic law, judicial system, Umayyad era, fair trial, Sharia, ijtiḥad, the court of the oppressed, historical sources, powers, Muslim law.

Islomda qozilik tizimi ilk islom davlatchiligi davrida va keyingi davrlarda davlat apparatining muhim va ajralmas qismi hisoblangan.

Manbalarda islomdagi qozilik tizimining ilk rivojlanish bosqichi sifatida Muhammad alayhissalomning Paygʻambarlik davri (610-631), ikkinchi bosqichi sifatida al-xulafo ar-roshidun davri (632-661) deb koʻrsatilsa, umaviylar davri (661-750) uchinchi bosqichi sifatida qayd etiladi.

Bu davrdagi qozilik tizimini mantiqiy jihatdan Xulafoi roshidin davrining davomi deyish mumkin. Shuningdek, bu davr kuchli davlatchilik sari qadam qoʻyilishi bilan xarakterlanadi. Davlat chegaralarining kengayishi, Gʻarb va

Sharqda musulmon aholisi sonining ortishi, ijtihodiy hukmlarning rivojlanishiga omil bo'ldi.

Xulafoi roshidin davrida poytaxtda qozilik vazifasini xalifalarning o'zi bajargan. Viloyatlarda esa, voliyalar bir vaqtning o'zida ham voliy, ham qozi vazifasini qo'shib bajarishgan¹. Bu davrda qozilik alohida mustaqil tizim sifatida ajralib chiqmadi. Davlatning aksariyat shaharlarida voliy etib tayinlangan shaxslarga qozilik qilish vakolati topshirilgan. Natijada har bir viloyat rahbari ham voliy, ham qozi bo'lgan.

Xalifa Umar ibn Xattob davridan boshlab esa, qozilikka alohida shaxs tayinlana boshlagan. Lekin bu islohot davlatning barcha shaharlarida to'liq tatbiq etildi deb bo'lmaydi.

Umaviy davlatning ilk xalifasi Muoviya ibn Abi Sufyon davridan boshlab qozilik alohida mansab darajasiga ko'tarildi. Poytaxt Damashqda xalifa qozilarni shaxsan o'zi tayinlagan. Shu sababli Damashq qozisi xalifaning qozisi deb yuritilgan².

Ta'kidlash joizki, xalifa Umar ibn Xattob davrida boshlangan bu islohot umaviylar davrida to'liq tatbiq etildi.

Umaviylar davrida qozilik tizimi mustaqil davlat apparati sifatida ajralib chiqdi. Bu davrga kelib, sud ishlarida taqsimotlar amalga oshirildi, ya'ni fuqarolik (oilaviy va mulkiy), hamda jinoyat (had, qasos va ta'zir) kabi ishlar bir-biridan ajratildi.

Muoviya ibn Abi Sufyon davrida ilk marotaba Misr qozisi Sulaym ibn Itr (Anz)ga jarohatlar, qatl, qasos kabi ishlarni ko'rib chiqish vazifasi yuklatilgan³.

Muhammad ibn Yusuf al-Kindiyning yozishicha, Abdurahmon ibn Muoviya ibn Huzayj (hijriy 86 yil vafot etgan) vasiylik ishlarini ko'ruvchi ilk qozi bo'lgan⁴. Yana bir ma'lumotda u : "Xalifa ibn Hishom davrida Misr qozisi

¹ Муҳаммад Зухайлий: Тарих ал қазо фил ислам-Дор ал-маърифат. Дамашқ. 1995.- Б 156.

² Ўша асар.Б. 166-167

³ Муҳаммад Зухайлий: Тарих ал-қазо фил-ислам-дор ал-маърифат. Дамашқ 1995. –Б. 167

⁴ Ўша асар

Tavba ibn Namr axbos⁵ mulklarini nazorat qiluvchi birinchi qozi edi”⁶ deb yozadi. Axbos mulklari undan avval vasiyat qiluvchilarning qo‘lida bo‘lgan. Hijriy 118 yilda axbos mulklarini Tavba ibn Namr devon shakliga keltirgan va bu tajriba abbosiylar davriga kelib o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqqanini ko‘rish mumkin.

Umaviylar davriga kelib, qozilarning vazifa va vakolatlari yanada kengaydi. Ular qozilik ishi bilan bir qatorda, vaqf va vasiylik, shurta (polisiya), baytul-mol⁷ kabi muassasalarning ishlarini nazorat qila boshladilar. Shuningdek, xalifa yoki voliy davlat tashqarisida bo‘lganida, boshqaruv vazifasini ham bajarishgan. Bu holatga manbalarda “istixlof” deb ta’rif berilgan.

“Axbor al-quzot li Vaki” nomli asarda muallif bu haqida ko‘plab ma’lumotlarni bayon etgan. Jumladan: “Abdulloh ibn Abdulmalik ibn Marvon qozisi Imron ibn Abdurahmon al-Husniyga qozilik ishi bilan birga mirshablikni ham qo‘shib topshirgan”⁸.

Baytul-molni boshqarish vazifasi esa ilk marotaba Umar ibn Xattob davrida Abdulloh ibn Mas’udga topshirilgan. Bu ish umaviylar davrida ham davom etdi. Muhammad ibn Yusuf al-Kindiy: “Abdurahmon ibn Hujayra baytul-molning ishlarini nazorat qilgan. U Abdulaziz ibn Marvonning qozisi edi”, deb yozadi⁹.

Umaviylar davrida ilk marotaba qozi chiqargan hukmlarni yozish, qayd etish boshlandi. Muhammad ibn Yusuf al-Kindiy “Misr voliyolari” nomli kitobida keltirishicha, Muoviya ibn Abi Sufyonning qozisi Sulaym ibn Itr at-Tijliy birinchi bo‘lib meros yuzasidan chiqargan hukmini yozadi va guvoh sifatida qo‘shin boshliqlarini kiritadi¹⁰.

Shu tariqa qozilik mahkamalarida ko‘rilgan ishlarni qayd qilish, guvohlar va ularning ko‘rsatmalari yozilgan hujjatlar paydo bo‘la boshlagan.

⁵ Ахбос – хайрия сифатида тақдим қилинадиган мулк.

⁶ Зофир ал-Қосимий: Низом ал –хукм фи шариъа ват-тарих ал-исламий. Дор ан-нафаис. Байрут 1992.- Б.277

⁷ Байтулмол арабча - "мол-мулк уйи" маъносини англатади. Ислом мамлакатларида давлатга қарашли мол-мулк .

⁸ Муҳаммад Зуҳайлий: Тарих ал-қазо фил-ислам-дор ал-маърифат. Дамашқ 1995. –Б.

⁹ Ўша асар

¹⁰ М.Ҳазарий: ад-давлату ал-умавия. Дор ал-фикр. Дамашқ, 1995.- Б.403

Shuningdek, qozilik sudlarida ilk marotaba qozilarning yangi noiblari, jumladan, munadiy¹¹, hojib¹² va tarjimon hamda polisiya (shurta) xodimlarining ishtiroki kuzatilgan.

Ta'kidlash joizki, qozilar tarjimonlardan islomga kirgan, arab bo'lmagan kishilarning ishlarini ko'rib chiqish uchun foydalanganlar. G'ayridinlar o'rtasida vujudga kelgan nizolar esa o'z diniy arboblari tomonidan hal qilinavergan.

Umaviylar davrida ijtihodga keng yo'l ochib berildi. Qozilar hukm chiqarishda Qur'on va Sunnada bo'lmagan masalalar yuzasidan o'z ray'lariga ko'ra ijtihod qilganlar. Qozilarga bu borada berilgan erkinlik, shariatga va adolatga xilof bo'lmagan holda, bir-biriga o'xshash masalalardagi hukmlar o'rtasida ixtiloflarni paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida, keyingi, abbosiylar davrida fiqhiy mazhablarning shakllanishida ijobiy rol o'ynadi.

Umaviylar davriga kelib qozilar mustaqil bo'ldilar. Bu davrda Mazolim (shikoyat) sudining faoliyati ham bir muncha takomillashdi. Unda asosan xalifaning boshqaruvi ostida rasmiy va asosiy ishlar ko'rilgan. Umaviy xalifasi Abdulmalik ibn Marvon (685/705) birinchi bo'lib mazolim mahkamasini boshqargan. Shuningdek, ilk marotaba da'volarni ko'rib chiqish uchun muayyan kun tayin qilgan¹³. Shu tariqa davlatdagi xuquqiy me'yorlarni tartibga solgan va adolatli ish yuritishni ta'minlagan.

Qozilarning aksariyat qismi masjidda o'tirgan. Ishlar asosan masjidlarda ko'rilgan. Chunki masjid barcha shaharlarda hamma biladigan, hatto musofirlar uchun ham topishi qiyin bo'lmagan yagona markaz hisoblangan. Shuningdek, qozi o'z uyida, ko'chalarda yoki ayrim uzrli sabablarga ko'ra masjid eshigi oldida nizolarni hal qilgan¹⁴.

¹¹ Мунадий-бу лавозим соҳиби ваколатига қозининг келганини хабар бериш, хусуматчиларни чақириш каби вазифалар кирган

¹² Ҳожиб- бу қози ҳузурига кириш, унинг олдида ўтириш каби ҳолатларда даъвогарларни тартибга риоя қилишини таъминлаган

¹³ Мовардий: ал-Аҳкам ас-Султания. Дор ибн ал-Кутайба, Кувайт.- Б.78

¹⁴ Муҳаммад Зухайлий: Тарих ал-қазо фил-ислам-дор ал-маърифа. Дамашқ 1995. –Б. 215

Qayd etish joizki, bu davrda sud ishlari uchun alohida bino ajratilgan bo‘lib, faqatgina rasmiy ishlar ko‘rilgan.

Umaviylar davridagi qozilarning faoliyatiga nazar solar ekanmiz, unda qozilarning odilona harakat qilib, har bir ish yuzasidan adolatli qaror qabul qilganliklarining guvohi bo‘lamiz. Quyida Umaviy davlatining adolatli xalifasi Umar ibn Abdilazizning qozisi Maymun ibn Mhronga yozgan risolasini keltirishni joiz deb topdik:

“Biror narsadan siqilgan yoki g‘amgin bo‘lgan paytlaringda hech bir da’vo yuzasidan hukm chiqarma va albatta tomonlarga nisbatan teng muomalada bo‘l. Da’voga aloqador bo‘lgan ma’lumotlarni yaxshilab o‘rganib chiqmasdan va diqqatlik bilan eshitmasdan turib, hukm chiqarishingda hech qanday ma’no yo‘q va haqqini egasiga qaytarmasdan qaror chiqarishing adolatdan emas.

Odilona harakat qilmasdan hukm chiqarish va uni ijro etish hech bir mantiqqa to‘g‘ri kelmasligini bilib qo‘y!”¹⁵.

Bundan xulosa qilish mumkinki, xalifa qozi chiqarayotgan xukmlarning adolatli bo‘lishi va inson xuquqlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda sud jarayonlarida taraflar tengligini ta’minlash kabi dolzarb masalalarga alohida e’tibor qaratgan.

Bugungi kunda davlat va huquq borasida odil sudlovni amalga oshirish, mamlakatimizda adolatli davlat barpo etish va bu sohada islohotlarni amalga tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda ayniqsa qozilarning adolatli bo‘lishi, ularning ijtimoiy adolatni tantana qilishida qonuniy yondoshuvi beqiyos ahamiyatga ega. “Xalq ochlikka, yo‘qchilikka, hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi” deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. Shunday ekan, bu borada islom tarixida ilgari surilgan g‘oyalarni o‘rganish ayni muddaodir.

¹⁵ Islam ansiklopedisi - Б.78-79 (турк тилида)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Kindiy, M. Y. *Tarix Misr voliylari va qozilari haqida*. Qohira: Dor al-fikr, 1980.
2. Vaki', A. *Axbor al-quzot*. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1994.
3. Shibli Nu'moniy. *Al-Faruq*. Qohira: Maktaba al-Salafiyya, 2001.
4. As-Sarakhsi. *Al-Mabsut*. Beyrut: Dar al-Ma'rifa, 1993.
5. Mirziyoyev, Sh. M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston, 2022.